

**SAMARQAND VETERINARIYA MEDITSINASI INSTITUTI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA  
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



**QISHLOQ XO'JLIK HAYVONLARI  
ZOTLARI VA YANGI ZOT  
YARATISHDA INNOVATSION  
USULLARDAN FOYDALANISH  
Moduli bo'yicha**

**ZOOINJENERIYA**

**O' QUV - USLUBIY MAJMUA**

**Samarqand 2020**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**SAMARQAND VETERINARIYA MEDITSINASI INSTITUTI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA  
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**“Tasdiqlayman”**

SamVMI huzuridagi PKQT va  
MO tarmoq markazi direktori  
dotsent\_\_\_\_\_ A.Yusupov  
“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2020-yil

**ZOOINJENERIYA**

**YO'NALISHI**

**“QISHLOQ XO'JALIK HAYVONLARI ZOTLARI VA YANGI ZOT  
YARATISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH”**

**MODULI BO'YICHA**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Samarqand 2020**

*Modulning ishchi o‘quv dasturi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2020- yil 7-dekabrdagi 648-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.*

**Tuzuvchilar:** **Xujamov J.N.** -“Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko‘paytirish” kafedrasи mudiri, q.x.f.f.d.(PhD)

**Mamatov B.S.** -“Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko‘paytirish” kafedrasи q.x.f.f.d.(PhD)

**Taqrizchilar:**

**Xatamov A.** -Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiytadqiqot instituti ilmiy ishlar bo‘yicha deriktor o‘rinbosari, q.x.f.f.d.(PhD).

**Qurbanova Sh.E.** -“Qoramolchilik, parrandachilik va baliqchilik” kafedrasи, katta o‘qituvchisi q.x.f.f.d.(PhD)

Ishchi o‘quv dasturi Samarqand veterinariya meditsinasi instituti PKQT va MO tarmoq markazi Kengashining 2020-yil 29-dekabrning 5-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

## MUNDARIJA

<b>I</b>	<b>ISHCHI O'QUV DASTURI</b>	<b>5</b>
<b>II</b>	<b>MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI</b>	<b>12</b>
<b>III</b>	<b>NAZARIY MASHG'ULOTLAR</b>	<b>13</b>
<b>IV</b>	<b>AMALIY MASHG'ULOT UCHUN MATERIALLAR, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR</b>	<b>50</b>
<b>V</b>	<b>KO'CHMA MASHG'ULOT</b>	<b>64</b>
<b>VI</b>	<b>KEYSLAR BANKI</b>	<b>65</b>
<b>VII</b>	<b>GLOSSARIY</b>	<b>67</b>
<b>VIII</b>	<b>ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>	<b>78</b>
<b>IX</b>	<b>MUTAXASSIS TOMONIDAN BERILGAN TAQRIZ</b>	<b>82</b>

## **ISHCHI O‘QUV DASTURI**

### **Kirish**

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovation kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** tinglovchilarini innovation faoliyatini rivojlantirish haqidagi bilimlarini takomillashtirish, innovation faoliyatni rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash, tahlil etish, shuningdek, ularda innovation ta’lim texnologiyalari, o‘qitishning innovation shakl, metod va vositalari, pedagogik kompetentlik sifatlari hamda ta’lim jarayonini tashkil etishga kreativ yondashishga doir bilimlarini takomillashtirish asosida oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini oshirish.

## **Modulning vazifalari:**

- qishloq xo‘jalik xayvonlarining zotlari, ularning yaratilishi, biologik va xo‘jalik foydali belgilari, tarqalishi va zot bo‘yicha olib boriladigan naslchilik ishlarining yo‘nalishi;
- zotlarning tarkibiy qismlari va zot ichidagi mahsuldorlik tiplari;
- zotdagи mashhur liniyalar va oilalar;
- zotga mansub hayvonlarning mahsuldorligi bo‘yicha rekord ko‘rsatkichlar.
- turli zotlarni iqlim va oziqlantirish sharoitini hisobga olgan holda rayonlashtirish haqida nazariy va amaliy bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

## **Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

Modulni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

### **Tinglovchi:**

- qishloq xo‘jalik xayvonlarining biologik xususiyatlari,
- zot haqida tushuncha,zotlarning klassifikasiysi, zotning strukturasi,
- qishloq xo‘jalik hayvonlari zotlarining yaratilish tarixi va xo‘jalik foydali belgilari;
- zot bilan olib boriladigan naslchilik ishlarining yo‘nalishlarini **bilishi** kerak;
- zotlarning tarqalishi, zotlarni rayonlashtirish,qoramol zotlari, ularning tasnifi, biologik va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari;
- qo‘y va echki zotlari, ularning tasnifi, biologik va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari;
- cho‘chqa zotlari, ularning tasnifi, biologik va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari;
- ot zotlari, ularning tasnifi, biologik va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari;
- parranda zotlari, ularning tasnifi, biologik va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari;
- quyon zotlari, ularning tasnifi, biologik va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi **ko‘nikmalarga** ega bo‘lishi zarur.

- qishloq xo‘jalik xayvonlarining biologik xususiyatlaridan samarali foydalanish, yangi zotlarni yaratish tamoyillari, yangi zotlarni yaratishda genetika fani yutuqlaridan foydalanish, yangi zot tiplari, liniyalari va oilalarini yaratish tajribalari, yangi zotlarni yaratishga katta hissa qo‘shtan olimlar va chorvadorlar ilg‘or tajribalarini qo‘llash, yangi zotlarni yaratishda biotexnologik usullardan foydalanish bo‘yicha **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

– qishloq ho‘jalik hayvonlarining oziqlantirishda oziqalarni sifatini zamonaviy usullar bilan baholash, hayvonlarga to‘liq qiymatli rasion zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash **kompetensiyalariga** ega bo‘lish lozim.

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

Modulni o‘qitish ma’ruza, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasision va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlari, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kolokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Qishloq xo‘jalik hayvonlari zotlari va yangi zot yaratishda innovasion usullardan foydalanish” modulini mazmuni o‘quv rejadagi “Qishloq ho‘jalik hayvonlarining nasl xususiyatlari va mahsuldorligini oshirishda genetika, seleksiya va biotexnologiya”, “Qishloq xo‘jalik hayvonlarni oziqlantirishda innovasion texnologiyalari” va “Chorvachilik maxsulotlarini ishlab chiqarishda va qayta ishlashda innovasion texnologiyalar” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning mobil ilovalar yaratish bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

## **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar Chorvachilikni yanada rivojlantirish, qishloq xo'jalik hayvonlarining yangi yuqori mahsuldor zotlarni yaratish, ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida chorva mollarning bosh sonini ko'paytirish, ularning mahsuldorligini oshirish, ko'p va sifatli maxsulot olish, shuningdek, maxsulotlarni qayta ishlaydigan kichik korxonalarini tashkil etish, foydalanish va amalda qo'llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

## MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modulmavzulari	Tinglovchiningo‘quv yuklamasi, soat				
		hammasi	jami	Auditoriya o‘quv yuklamasi		ko‘chma mashg‘ulot
				Nazariy	jumladan	
1.	Qishloq xo‘jalik hayvonlarining zotlari, yangi zot yaratishda seleksion va innovatsion usullarni ahamiyati	2	2	2		
2.	Qishloq xo‘jalik hayvonlarini mavjud zotlarini seleksion va innovation usullardan foydalanib mahsuldorligini oshirish	2	2	2		
3.	Mahsuldorlik bo‘yicha rekord ko‘rsatkichlarga erishishda naslchilik ishini innovatsion ahamiyati	2	2	2		
4.	Chorvachilikda tanlash va saralashda ishlab chiqarish tiplari.	2	2			2
5.	Chorvachilikda turli innovasiyalarning qo‘llanilishi.	2	2			2
6.	Yangi zot yaratishda seleksiya ishlarini o‘rnii va roli.	4	2		2	2
7.	Yangi zot yaratishda innovatsion usullardan foydalanish.	2	2		2	
8	Gen injeneriyasi yutuqlaridan foydalanib, chorva hayvonlarining mahsuldorligini oshirish.	2	2		2	
	<b>Jami:</b>	<b>18</b>	<b>16</b>	<b>6</b>	<b>10</b>	<b>2</b>

## **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mavzu: Qishloq xo‘jalik hayvonlarining zotlari, yangi zot yaratishda seleksion va innavatsion usullarni ahamiyati (2 soat).**

1.1.Zotning ta’rifi, qishloq xo‘jalik hayvonlarining mahsuldorlik bo‘yicha tasnifi (qoramol, qo‘y-echki, cho‘chqa, ot, parranda, quyon), ularning dunyo mamlakatlarida tarqalishi va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari.

1.2.Sof zot ichida urchitish yo‘li bilan yaratilgan zotlar, chatishtirish usulida yaratilgan zotlar, gibriddash yo‘li bilan yaratilgan zotlar.

1.3.Yangi zotlarni yaratish sxemalari

**2-mavzu: Qishloq xo‘jalik hayvonlarini mavjud zotlarini seleksion va innavatsion usullardan foydalanib mahsuldorligini oshirish. (2 soat).**

2.1.Zot ichidagi tiplar, liniyalar, oilalar, sof zotli urchitish yo‘li bilan yaratilgan zotlar.

2.2.Chatishtirish usulida yaratilgan zotlar.

2.3.Gibriddash usulida yaratilgan zotlar.

2.4. Naslchilik ishining xususiyatlari.

**3-mavzu: Mahsuldorlik bo‘yicha rekord ko‘rsatkichlarga erishishda naslchilik ishini innavatsion ahamiyati (2 soat).**

1. Qoramollarning sut mahsuldorligi bo‘yicha rekord ko‘rsatkichlar

2. Qishloq xo‘jalik hayvonlarining tirik vazni va tirik vaznning o‘sish ko‘rsatkichlari bo‘yicha rekord natijalar.

3. Qo‘ylarning jun mahsuldorligi bo‘yicha rekord ko‘rsatkichlar

4. Qishloq xo‘jalik hayvonlarining pushtdorligi va serpushtligi bo‘yicha rekord ko‘rsatkichlar.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-amaliy mashg‘ulot. Chorvachilikda tanlash va saralashda ishlab chiqarish tiplari (2 soat).**

**2-amaliy mashg‘ulot. Chorvachilikda turli innovasiyalarning qo‘llanilish (2-soat).**

**3-amaliy mashg‘ulot. Yangi zot yaratishda seleksiya ishlarini o‘rni va roli (2 soat).**

**4-amaliy mashg‘ulot. Yangi zot yaratishda innovation usullardan foydalanish (2 soat).**

**5-amaliy mashg‘ulot. Gen injeneriyasi yutuqlaridan foydalanib, chorva hayvonlarining mahsulorligini oshirish (2 soat).**

## **KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI**

Modul bo‘yicha ko‘chma mashg‘ulot davrida Samarqand viloyati Tayloq tumanidagi “Siyob Shavkat Orzu” fermer xo‘jaligidagi mavjud bo‘lgan yangi texnologiyalar bilan tanishish va ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishadilar va ko‘rishadilar.

## **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar va ko‘chma mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL

### TA'LIM METODLARI

#### B/B/B JADVALI- Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim.

Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

Bilaman (dars boshida yoziladi) (Talabining birlamchi bilimini baxolash)	Bilishni xohlayman (dars boshida yoziladi) (O'qituvchi ishini rejalash uchun)	Bilib oldim (dars oxirida yozilidi) (Talabaning qo'shimcha olgan bilimini baholash uchun)
%	100 %	100 %

### SWOT- TAHLIL JADVALI TEXNOLOGIYASI

SWOT termini inglizcha kuchli, kuchsiz, imkoniyat, havf so'zlarining bosh harflaridan tuzilgan. Bu texnologiyadan tashkilot yoki biror korxonaning kelgusidagi strategik rivojlanish mexanizmlarini tahlil etishda foydalanish qulay.

S- korxonaning ichki rivojlanish imkoniyatlari;

W- korxonaning ichki muammolari; .

O- korxonaning tashqi rivojlanish imkoniyatlari;

T- korxona uchun tashqi xavflar.

Darsda shakllantirilgan muammo yuzasidan to'plangan ma'lumotlar paketi o'qituvchining trenerligida talaba-o'quvchilar tomonidan o'rganilib bo'lingach guruhlar yoki kichik guruhlar hamkorlikda quyidagi jadvalni to'ldirib, oxir oqibatda tegishli optimal yechimga kelishadilar:

S: 1. 2. 3.	W: 1. 2. 3.
O: 1. 2. 3.	T: 1. 2. 3.

### III. MA’RUZA MATNLARI

#### 1-mavzu: Qishloq xo‘jalik hayvonlarining zotlari, yangi zot yaratishda seleksion va innavatsion usullarni ahamiyati

##### **Reja**

1.1.Zotning ta’rifi, qishloq xo‘jalik hayvonlarining mahsuldorlik bo‘yicha tasnifi (qoramol, qo‘y-echki, cho‘chqa, ot, parranda, quyon), ularning dunyo mamlakatlarida tarqalishi va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari.

1.2.Sof zot ichida urchitish yo‘li bilan yaratilgan zotlar, chatishtirish usulida yaratilgan zotlar, gibridlash yo‘li bilan yaratilgan zotlar.

1.3.Yangi zotlarni yaratish sxemalari

**Tayanch iboralar:** naslchilik ishi,sun’iy urug‘lantirish stansiyalari, davlat naslchilik kitobi.

**1.1.Zotning ta’rifi, qishloq xo‘jalik hayvonlarining mahsuldorlik bo‘yicha tasnifi (qoramol, qo‘y-echki, cho‘chqa, ot, parranda, quyon), ularning dunyo mamlakatlarida tarqalishi va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari.**

Chorvachilikni tobora jadallashtirishnaslchilik ishini samarasini oshirishga qaratilgan bulib, zotlar va podalarni jadallashtirishni talab qiladi. Mavjud zotlarni genetik potensialini oshirish maqsadida, yangi liniyalar yaratish, yangi zotlar yaratish uchun, yirik masshtabli seleksiyani tashkil qilish, embrionlarni ko‘chirish (transplantasiya) uchun chet tili keltirilgan mashxur zot buqalaridan foydalanish lozim.

Xozirgi vaqtida respublikada yangi va yagona naslchilik xizmati tashqil qilingan. Bu tashkilot xozirgi zamon fan yutuqlaridan foydalangan xolda butun kuchni mollarning genetik potensialini ko‘tarib, maxsuldorlikni oshirib maxsulot sifatini yaxshilash va iqdisodiy samarasini kutarishga qaratilgan.

Chorvachilikni industrilizasiyalashtirish, biotexnologiyani qullab naslchilik ishini ko‘tarish respublikada qishloq xujaligi fanlar akademiyasi raxbarligida bulib, chorvachilik ilmiy tekshirish instituti, seleksion markazlar va naslchilik xujaliklarida olib boriladi.

Bu xujaliklarda yig‘ilgan, tuplangan naslchilik ishi buyicha ma’lumotlar genetika, matematik taxlillar qilinib, kup yillik naslchilik seleksion dastur tuziladi. Seleksion markazlar naslchilik xizmatida bulib, zotlar buyicha kengash tashkil qilib, naslli erkak hayvonlarni uz avlodiniig sifati buyicha baxolash ishlarini olib boradi. Respublika naslchilik ishi birlashmalari viloyat, tuman birlashmalari bilan naslchilik xujaliklari ishini boshqarib boradi. Bu tashkilotlarda naslchilik ishini yaxshilash buyicha chet ellardan keltirilgan zotli mollar bilan naslchilik xujaliklarini ta’minalash va sun’iy urug‘lantirishni yaxshi yulga quyish ishlari yuklatilgan.

*a)naslchilik xujaliklarida urg‘ochi mollar (kelib chiqishi, konstitusiya va eksteryeri, tirik massasiga, maxsuldarlik kursatkichlariga, qaysi liniya yoki oplata mansubligi bola berish qobiliyati va uning sifati, uzoq yashovchanligi va naslning sifatiga qarab tanlanadi.*

*b)Xar xil maqsadlarda foydalaniladigan (tovar) xujaliklarda sof zotli urchitish va ayrim vaqtarda chatishtirish usulidan foydalaniladi.*

Bunda chatishtirish usuli yangi naslning yashovchanlik qobiliyati yuqori bulishini xamda geterozis effekti (samarasi) vujudga kelishini ta’minalaydi. Naslchilik zavodlari - naslchilik xujaliklarining oliv shaklidir. Ular zotni takomillashtirishni xal qiluvchi axamiyatga ega. Bu zavodlarda eski liniyalar urg‘ochi xayvon oilalari va xayvonlarning zavod tiplari takomillashtiriladi va yangilari yaratiladi.

Naslchilik zavodlari - sun’iy urug‘lantirish stansiyalarini va boshqa naslchilik xujaliklarini yuqori qimmatli nasldor erkak xayvonlar bilan ta’minlab turiladi. Naslchilik zavodlarida ko‘pincha mashxur urug‘boshilarni inbriding usulida urchitish qullaniladi. Bu yerda juda puxta zootexnikaviy va naslchilik xisoboti yuritiladi. Ixtisoslashgan naslchilik xujaliklari -qimmatli nasldor erkak va urg‘ochi hayvonlarni ustirish, ularni sotishbilan shug‘ullanadi. Bu yerda olib boriladigan naslchilik ishlari naslchilik zavodlaridagi maqsadni kuzda tutadi.

Jamoa xujaligidagi naslchilik fermalaridagi naslchilik ishlari urg‘ochi hayvonlar podasini yaxshilashga qaratilgan. Bu yerdapodani tuldirish uchun yosh mollarni tug‘ri ustirish, asrash va baxolash ishlari olib boriladi, urg‘ochi mollarni sun‘iy qochirish ***uchun*** qimmatli nasldor erkak hayvonlar spermasidan foydalaniladi. Naslchilik fermalari esa xar xil maqsadlarda foydalaniladigan xujaliklardagi hayvonlarning nasl sifatini va maxsulorligini yaxshilash bilan shug‘ullanadi.

Zotlarni tumanlashtirish ulardan kelgusida tug‘ri va samaralifoydalanishni kuzda tutadi. Barcha zotlarni xududlar, viloyatlar va tumanlar buyicha tarqatib urchitish muxim davlat tadbiri xisoblanib, rejalashtirilgan xolda naslchilik ishini yaxshilashga qaratilgan.

Davlat tomonidan ishlab chiqilgan barchahayvon turlari buyicha ularni tumanlashtirish rejasi turli zotlarni tumanlashtirishda ularning zot-strukturasini, shu zonada urchitilayotganligini (moslashganligi), ularning biologik xususiyatlarini va rejalashtirilgan maxsulot miqdori va sifatini olish xususiyatlari nazarda tutiladi. Chorvachilik seleksiya kompaniyalarining tarkibi hayvon turlari bo‘yicha farqlanadi. Kovshovchi hayvonlarda asosan ochiq tizim qo‘llaniladi, olinadigan urg‘ochi hayvonlar ko‘paytirish manbai bo‘lib qoladi.

Sut yo‘nalishida buqalar xalqaro buqalarni baxolash (INTERBULL) amalga oshirilib, ularning muzlatilgan urug‘lari jaxon bo‘ylab sotiladi. Parrandachilikda naslchilik faqat yirik kompaniyalarida olib borilib dunyo bo‘yicha naslli parrandalar yetkazib beradi<sup>1</sup>.

Xayot sharoiti, ozuqa bazasi va boshqa omillar uzgargandan sung zotlarni tumanlashtirish buyicha yangi qaror chiqdi. ***Bu*** qarorda bir xudduda bir necha zotni urchitish usullarini yo‘qotish va chet davlatlardan xoxlagan rejalashtirilmagan zotni keltirmaslik masalalari quyildi.

Chorvachilikni jadallashtirish barcha zotlarni takomillashtirishni yangi zotlarni yaratishni majbur qiladi. Bu ishlar ikki yo‘nalishda borishi lozim:

---

<sup>1</sup> Project Farm Animal Breeding and Society, Utrecht, The Netherlands 2013

*1. Barcha mavjud zotlarni chet ellardan keltirilgan mashxur naslli erkak xayvonlar bilan yaxshilash, yangi zotlar yaratish;*

*2. Barcha mavjud zotlar ichida tanlash-saralash ishlari olib borib yuqori maxsuldarli naslli tekshirilgan, yaxshilovchi erkak xayvonlar bilan urchitish.*

Bu ishni amalga oshirishda mustaxkam ozuqa bazasini tiklash lozim.

**1.2.Sof zot ichida urchitish yo‘li bilan yaratilgan zotlar, chatishtirish usulida yaratilgan zotlar, gibridlash yo‘li bilan yaratilgan zotlar.**

### ***Naslchilik kitoblari – sistemalari DNK***

Naslchilik kitoblari va ularni yurgazish.Mamlakatimizda xozirgi vaqtida naslchilik kitoblarining quyidagi shakllari mavjud:

*1.Zavod naslchilik kitoblari: bunday kitoblar naslchilik xujaliklarida nasldorxayvonlar usun yuritiladi.*

*2.Davlat naslchilik kitobi (DNK): bu kitobga muayyan standartga javob beradigan barcha nasldor xayvonlar yoziladi.*

*3. Yuqori maxsuldar xayvonlar kitobi: bu kitobga tegishli zotning eng yaxshi xayvonlari yoziladi.*

*4.Viloyatlarda, sun’iy urug‘lantirish va naslchilik birlashmalarida vaqt-vaqt bilan nashr qilib turiladigan, nasldor erkak xayvonlar kataloglari.*

*5.Naslchilik ishi va sun’iy urug‘lantirish buyicha byulletenlar. Bu byulletenlar o‘zaro iqtisodiy yordam kengashining qishloq xujaligi buyicha doimiy komissiyasi tomonidan nashr qilinadi, Byulletenda eng mashxur nasldor erkak xayvonlar tug‘risidagi ma’lumotlar e’lon qilinadi.*

DNK xar bir zot buyicha olib borilgan. Zootexnik va naslchilik xisobotlari asosida yuritiladi. I klass talablariga javob bergan xaivonlar DNKga yozilish uchun standart bulib xizmat kiladi. U yoki bu xayvon zotlari ustida ish olib boriladigan naslchilik ishlarini tashkil etishda yordam kursatish uchun zotlar buyicha kengashlar (sovetslar) tuziladi.

Respublikada tarkalgan asosiy rejali zotlar buyicha «kengashlar» tashkil etilgan.Kegashlar safiga asosan muayyan zot ustida ilmiy ish olib borayotgan va uni yaxshi biladigan olimlar shu zot bilan ishlayotgan ishlab chikarish ilgorlari, vazirlik va boshka idoralarning xodimlari kiradi.

Kengashlar vazifalari: Zot ustida olib borilayottan naslchilik ishlari rejasini tuzish; zot ichida yangi zavod tiplari, liniya va oilalarni vujudga keltirish uslubini tuzish va kurib chikish; erkak xaivonlar naslining sifatiga karab sinash ishlarini tashkil etish; naslchilik zavodlarida xamda naslchilik fermalaridan olingan nasldor yosh mollarni ustirish va tarkatish rejalarini kurib chikish; muayyan chorva moli zoti ustida naslchilik ishlari olib boruvchn ayrim naslchilik zavodlari buyicha naslchilik ishlari rejalarini tuzish va kurib chikish; DNK va erkak xaivonlar kataloglarini nashr etish uchun ma'lumot tayyorlash; zotning yangi standartlarnni tasdiklash; zotdor erkak xayvonlardan foydalanish masalasini kurib chikish va tegishli karorlar kabul Kili shli r. Naslchilik xujalik lari tarmogi davlat naslchilik zavodlari, jamoa xujaligi naslchilik fermalari, davlat naslchilik birlashmalari va xayvonlarni sun'iy uruglanrnish stansiyalarini uz ichiga oladi.

Davlat naslchilik birlashmalari va naslchilik stansiyalar-ning asosiy vazifalari uzi joylashgan zonalarda urchilishga tegishli zotlarga mansub xayvonlarni takomillashtirish ishlarini tashkil kilish. Birlashmalar zotlarni takomillashtirish buyicha naslchilik ishining yagona reyasasi asosta ish olib boriladi. Davlat naslchilik stansiyalarining asosl<sup>^</sup>. vazifasi naslchilik fer-malarida kimmatlri nasldor erkak xayvonlardan sun'iy uruglanrnish usulidan keng foydalanish, xayvonlarning zotdorlik va maxsuldarlik sifatlarini yaxshilash ishlarini tashkil etish. Buning uchun stansiyalarda elita va elita rekord klasslarga mansub sof zot, naslli sinab kurilgan va yaxshilovchi deb baxolangan erkak xayvonlardan sroydalanish

Naslchilik xujaliklarda va naslchilik fermalarda nasldor erkak xayvonlardan zotni takomillashtirish rejasiga binoan, xususiy va guruxlab saralash asosida foydalaniлади (bunday saraldapodaga bitta liniyadan yoki karindosh guruxdan bir yoki ikkita nasldor buka birktiladi).

Stansiyalar xar yili xujaliklarda hayvonlarni bonitirovka kilishni va ularning xar bir pog'ona eng yaxshi kismini nasldorlik yadrosi uchun ajratib olishga yuboriladi. Inkubator-parrandachilik stansiyalari davlat korxonalari jumlasidan bulib, ularning vazifasi naslchilik xujaliklaridan olinadigan tuxumdan yoppasiga ochirishdan iborat.

Bir kunlnk jujalar tegishli markirovkadan utkach, tuxum kaysi xujalikdan olingan bulsa, yana usha xujaliklarga yuboriladi.

Seleksion markazlar naslchilik xizmatida bulib, zotlar buyicha (sovet) kengash tashkil kilinib, naslli erkak xayvonlarni uz avlodiniig sifati buyicha baxolash ishlarini olib boradi. Respublika naslchilik ishi birlashmalari viloyat, tuman birlashmalari bilan naslchilik xujaliklari ishini boshqarib boradi.

Bu tashkilotlarda naslchilik ishini yaxshilash buyicha chet ellardan keltirilgan yaxshi zotli mollar bilan naslchilik xujaliklarni taminlash va sun'iy uruglantirishni yaxshi yulga quyish ishlari yuklatilgan.

a) Naslchilik xujaliklarda urg'ochi mollar (kelib chikishi, konstntsiya va eksteryeri, tirik vazniga, maxsuldarlik kursatkichlariga, kaysi liniya yoki oilagamansubligi, bola berish kobiliyati va uning sifati, uzok yashovchanligivanasliningsifatiga karab tanlanadi.

b)xar xil maksadlarda foydalaniladigan (tovar) xujaliklarda sof zotli urchitish va ayrim faktlarda chatishirish usulidan foydalaniladi. Bundachatishirishusuliyangi naslning yashovchanlik kobiliyati yukori bulishini xamda geterozis effekt vujudga kelishini ta'minlaydi.

Naslchilik zavodlari - naslchilik xujaliklarining oliy shaklidir. Ular zotni takomillashtirishni xal kiluvchi axamiyatga zga. Bu zavodlarda eski liniyalari urgochi xayvon oilalari va xayvonlarning zavod tiplari takomillashtiriladi va yangidan yaratiladi. Naslchilik zavodlari - sun'iy uruglantirish stansiya-larini va bosqcha naslchilik xujaliklarini yukori kimmatlri nasldor erkak xaivonlar bilan ta'minlab turadi. Naslchilik zavo-dlarida kupinchha mashxur urug'boshilarni inbriding usulida urchitish qullaniladi. Bu yerda juda puxta zootexkikaviy va naslchilik xisoboti yuritiladi.

Ixtisoslashgan naslchilik xujaliklari qimmatli nasldor erkak va urg‘ochi hayvonlarni ustirish, ularni sotish bilan shug‘ullanadi. Bu yerda ham olib boriladigan naslchilik ishlari naslchilik zavodlaridagi maksadni kuzda tutadi.

Jamoa xujaligidagi naslchilik fermalarining naslchilik ishlari urg‘ochi xayvonlar podasini yaxshilashga karatilgan. Bu yerda podani tuldirish uchun yosh mollarni tug‘ri ustirish, asrash va baxolash ishlari olib boriladi; urg‘ochi mollarni sun’iy kochirish uchun kimmamatli nasldor erkak xayvonlar spermasidan foydalaniladi. Naslchilik fermalari esa xar xil maqsadlarda foydalanadigan xujaliklardagi hayvonlarning nasl sifatini va maxsulorligini yaxshilash bilan shug‘ullanadi.

### **1.3.Yangi zotlarni yaratish sxemalari**

#### **Naslchilik - bu yangi zotlarni yaratish va mavjud zotlarni yaxshilash**

Selektsiyaning ilmiy asoslarini Ch. Darwin turlarning kelib chiqishi (1859) da qo'yan, unda u organizmlarning o'zgaruvchanligining sabablari va tabiatini yoritgan va selektsiyaning yangi shakllarni yaratishda rolini ko'rsatgan. Selektsiyani keyingi rivojlanishidagi muhim bosqich bu irsiyat qonuniyatlarining kashf qilinishi edi. Vklad selektsiyani rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. I. Vavilov, irsiy o'zgaruvchanlikdagi gomologik qatorlar qonuni va madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlari nazariyasi muallifi.

*Mavzuda* inson yaratgan sharoitda o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlarning o'zgarishi, rivojlanishi, o'zgarishi qonuniyatlarini o'rganishdir. Selektsiya yordamida madaniy o'simliklar va uy hayvonlariga ta'sir qilish usullari ishlab chiqiladi. Bu ularning irsiy xususiyatlarini inson uchun zarur bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish uchun ro'y beradi. Selektsiya o'simlik va hayvonot dunyosi rivojlanishining shakllaridan biriga aylandi. Bu tabiatdagi turlarning evolyutsiyasi bilan bir xil qonunlarga bo'ysunadi, ammo bu erda tabiiy tanlanish qisman sun'iy bilan almashtiriladi.

*Nazariy asoslari* bu genetika, evolyutsion ta'lilot. Evolyutsion nazariya, irsiyat va o'zgaruvchanlik qonunlari, toza chiziqlar va mutatsiyalar to'g'risidagi ta'lilotdan foydalanib, seleksionerlar o'simlik navlari, hayvonlar zoti va mikroorganizm shtammlarini ko'paytirishning turli usullarini ishlab chiqdilar.

Naslchilikning asosiy usullari *selektsiya*, *gibrividatsiya*, *poliploidiya*, *eksperimental mutagenez*, *gen muhandislik usullari va boshqalar*.

Zamonaviy naslchilikning asosiy vazifalari navlar va zotlarning mahsuldorligini oshirish, ularni sanoat asosiga o'tkazish, zamonaviy qishloq xo'jaligi sharoitlariga moslashgan zotlar, navlar va shtammlarni yaratish, eng kam xarajat bilan oziq-ovqat mahsulotlarini to'liq ishlab chiqarishni ta'minlash va boshqalar.

Naslchilikda uchta asosiy bo'lim ajralib turadi: o'simliklarni ko'paytirish, chorvachilik va mikroorganizmlarni ko'paytirish.

### **Zot, xilma-xillik, shtamm tushunchasi**

Selektsiya jarayonining ob'ektlari va yakuniy natijasi zoti, navi va shtammidir.

*Hayvonlar zoti* - bu ma'lum bir hayvonlar turidagi shaxslar to'plami, chunki u genetik jihatdan aniqlangan barqaror xususiyatlarga ega (xususiyatlari va belgilari) ular ushbu hayvon turidagi boshqa shaxslardan ajratib turadigan, ularni doimiy ravishda avlodlarga o'tkazadigan va insonning intellektual faoliyati natijasidir. Xuddi shu zotning hayvonlari tana turiga, mahsuldorlikka, unumdoorlikka va kostyumga o'xshashdir. Bu ularni boshqa bunday zotdan ajratishga imkon beradi. Zotda etarli miqdordagi hayvonlar bo'lishi kerak, aks holda selektsiyani qo'llash imkoniyati cheklangan bo'lib, tezda majburiy urchitish va natijada naslning nasli kamayishiga olib keladi. Yuqori mahsuldorlik va mo'lko'lilikka qo'shimcha ravishda, nasl juda keng tarqalgan bo'lishi kerak. Bu unda turli xil turlarni yaratish imkoniyatlarini oshiradi, bu esa uni yanada takomillashtirishga yordam beradi.

Tog' jinslarining shakllanishiga tabiiy va geografik sharoitlar - tuproq, o'simliklar, iqlim, relef va shu kabi xususiyatlar katta ta'sir ko'rsatadi. Hayvonlar yangi iqlim sharoitiga tushganda, ularning tanasida fiziologik o'zgarishlar ro'y beradi, ba'zi hollarda chuqur, boshqalarida esa saqlanib qoladi. Tana tizimlarini qayta qurish, mavjudlikning yangi va oldingi holatlari o'rtasidagi farq qanchalik katta bo'lsa. Hayvonlarning yangi hayot sharoitlariga moslashishi jarayoni bir necha avlodga cho'zilishi mumkin bo'lgan iqlimlashtirish deb ataladi.

**O'simliklar xilma-xilligi** - selektsiya natijasida ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan madaniy o'simliklar guruhi (foydali yoki dekorativ) bu o'simliklar guruhini bir xil turdag'i boshqa o'simliklardan ajratib turadiganlar. Har bir o'simlik navi noyob nomga ega va qayta-qayta o'stirilganda o'z xususiyatlarini saqlab qoladi.

**Mikroorganizmlarning shtammlari** - ma'lum bir mikroorganizm turining sof madaniyati, uning morfologik fiziologik xususiyatlari yaxshi tushuniladi. Turli vaqtarda shtammlarni turli manbalardan (tuproq, suv, oziq-ovqat) yoki bitta manbadan ajratib olish mumkin. Shuning uchun bir xil turdag'i bakteriyalar, xamirturush, mikroskopik qo'ziqorinlar bir qator xususiyatlarda farq qiluvchi ko'p sonli shtammlarga ega bo'lishi mumkin, masalan, antibiotiklarga sezgirligi, toksinlar, fermentlar va boshqa omillarni hosil qilish qobiliyati bilan. Oqsillarni (xususan fermentlarni) mikrobiologik sintezi uchun ishlatiladigan mikroorganizmlarning shtammlari yovvoyi shtammlarga qaraganda ancha samarali (selektsiya natijasida).

Zotlar, navlar, shtammlar mavjud bo'lolmaydi *doimiy e'tiborisiz* shaxs. Har bir nav, zot, naslchilik uchun o'ziga xos xususiyat mavjud *atrof-muhit sharoitlariga ma'lum bir munosabat*. Bu ularning ijobiyl fazilatlari atrof-muhit omillarining ma'lum bir intensivligida namoyon bo'lishi mumkinligini anglatadi. Ilmiy va amaliy muassasalar olimlari yangi zotlar va navlarning xususiyatlarini har tomonlama o'r ganmoqdalar va ularning ma'lum bir iqlim zonasida, ya'ni ularni rayonlashtirishda foydalanish uchun yaroqlilagini tekshirmoqdalar.

**Rayonlashtirish Niya** - muayyan zotlar yoki navlarning xususiyatlarining ma'lum bir tabiiy zona sharoitlariga mosligini tekshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui, bu ulardan har qanday mamlakat hududida oqilona foydalanish uchun zarur shartdir. Muayyan iqlim zonasida foydalanish uchun eng yaxshisi *rayonlashtirilgan* ijobiyl xususiyatlari faqat muayyan sharoitlarda namoyon bo'ladigan navlar, zotlar.

Selektsiya - hayvonlarning yangi zotlarini, o'simlik navlarini, mikroorganizmlarning shtammlarini yaratish fani. Naslchilik, shuningdek, yangi navlar va ekinlar va hayvonlar zotlarining duragaylarini etishtirish bilan shug'ullanadigan qishloq xo'jaligi sohasi deb ataladi. Sibirda kuzgi bug'doyni selektsiyasi va urug'ini etishtirish.

### **Nazorat savollari:**

1. Davlat naslchilik kitobi va uni yuritish tartibi ?
2. Yirik miqiyosli seleksiya va uning chorvachilikdagi ahamiyati?
3. Naslchilik ishining tuzilmasi?
4. Qishloq xo'jalik hayvonlarini tumanlashtirishning naslchilik ishidagi ahamiyati?
5. Zooveterinariya xizmat ko'rsatish shahobchalarida yuritilidagin naslchilik ishlari?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Project Farm Animal Breeding and Society, Utrecht, The Netherlands
2. Coleen Jones "Calf care" W D Hoard & Sons Co publisher, USA, 2006, english.
3. Michel Wastiaux "Genetic selection and reproduction"

## **2-mavzu: Qishloq xo‘jalik hayvonlarini mavjud zotlarini seleksion va innovatsion usullardan foydalanib mahsuldarligini oshirish**

### **Reja**

- 2.1. Chorvachilikda naslchilik ishi seleksiya yordamida amalga oshirish
- 2.2. Evolyusiyaning asosiy omillari, biotexnologiyalarning qo‘llanilishi
- 2.3. Mikdoriy va sifat belgilarning naslga berilishi. Irsiy koeffisiyenti, takrorlanish keffisenti, korrelyasiyalar

**Tayanch iboralar:** Seleksiya, evolyusiya, biotexnologiya, klonlashtirish, transplantasiya, gen injeneriyasi, mutagenez, polimeriya, genotipik va fenotipik tanlash.

**Fanning maqsadi, vazifasi** mavzu bo‘yicha qilinayotgan yangiliklarni yaqindan o‘tgatish. Amaliyotga joriy etish.

#### **2.1. Chorvachilikda naslchilik ishi seleksiya yordamida amalga oshirish**

Chorvachilikda naslchilik ishi seleksiya yordamida amalga oshiriladi. Seleksiya inglizcha tanlash degan so‘zdan olingan bo‘lib yangi o‘simlik navlari va hayvon zotlarini yaratish va yaxshilash to‘grisidagi fan bo‘lib xisoblanadi.

Seleksiyaning maksadi - urtacha urchitishga qaratilishi, seleksiyaning salbiy kurinishlariga chek kuyib, biologik kursatkichlarda noxush uzgarishlarni oldini oladi.

Xamma texnologiyalar xozirgi kunda maxsulotlarni namoyish va sotishni ta’minlamaydi. Fakat aniq va yaqinda ixtiro qilingan biotexnologiyalar bundan istisno. Kerak bulgan xollarda yuqoridagi texnologiyalarni qo‘llash mumkin. Misol sifatida embrionlar transplantasiyasi kursatish mumkin, u genofond zotlarni saqlab qolish va urchitish imkonini berib, sun’iy urug‘lantirish va embrionni kuchirib utkazish kasalliklarda xali genetik materialni tarqatish, markerlar buyicha seleksiyadan foydalanish orqali mollarni xujalikda uzok saqlash imkoniyatlari yaratiladi. Tashqi muxit ta’sirlariga chidamlilik, hayvon fel’-atvorining ijobiyligidan dalolat beradi.

Bu fanning tarixi kishilik jamiyatining boshlangich taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. Kishilar ibtidoiy jamiyatdan boshlab yangi zotlar va navlar yaratish bilan shug‘ullannib kelganlar.

Seleksiya fan sifatida Ch.Darvinnin ilmiy ishlari yordamida yaratilgan. 1859 yilda Ch.Darvinnin “Turlarning tabiiy tanlash yordamida paydo bulishi” asarining yozilishi bilan seleksiya fan sifatida paydo bulgan deb xisoblash mumkin. Bu kitobda sun’iy tanlashning evalyusiyadagi roli birinchi marta bayon etilgan. Ch.Darvin 1868 yilda “Xonakilashtirishda usimlik va hayvonlarning uzgarishi” kitobida sun’iy tanlashning rolini yanada batafsil yoritib berdi.

Seleksiya tom ma’noda tanlash suzini anglatsa xam u ancha katta tushuncha bulib xisoblanadi. Seleksiyaga tanlash uchun boshlangich materialni o‘rganish va tanlash, juftlash, irsiyat va o‘zgaruvchanlik tugrisidagi ta’limot, sun’iy usullar yordamida seleksiya uchun material yaratish, zot tugrisidagi ta’limot va boshkalar kiradi.

N.I.Vavilov fikricha “Seleksiya inson tomonidan boshkariladigan evalyusiyadir”.

Seleksiya fan sifatida mavjud zotlarni, navlarni yanada takomillashtirish, yaxshilash va yangi zotlar, navlar yaratish bilan shugillanadi.

Seleksiya ishlab chikarish tarmogi sifatida xam muxim axamiyatga ega. Yukori maxsuldor zotlar va xosildor navlarni yaratish va ularni ishlab chikarishga joriy kilish xam uning asosiy vazifasi bulib xisoblanadi.

Seleksiya inson san’ati, maxorati sifatida xam tan olinadi. Seleksiya yordamida ilgari misli kurilmagan yangi belgilarga ega bulgan navlar, zotlar yaratiladi. Masalan, gullarning yangi-navlari, xilma-xil kaptarlar, itlar, qorako‘l kuylari, chopkir arab va axaltaka otlari, kora-bayir oti, dakang yoki kulangi zotli xurozlar seleksiya yordamida yaratilgan.

Bu fanning rivojlanishida mashxur seleksionerlar Robert Bekvel, R.Ch.Kolling, A.G.Orlov – Chesmenskiy, P.D.Mazayev, I.A.Mersalov, P.N.Kuleshov, M.F.Ivanovlarning ilmiy ishlari muxim axamiyatga ega bulgan.

Robert Bekvel (1925-1995) Anglyaning lankaster grafligida tug‘ilgan. U 35 yoshida uzining fermasida seleksiya bilan shug‘ullannib mashxur leyster kuy zotini yaratadi. Rossiyada XYIII asrda A.G.Orlov- Chesmenskiy orlov yurtoqi ot zotini, I.A.Mersalov rus merinos qo‘y zotini, P.D.Mazayev – mazayev merinos qo‘y zotini,P.N.Kuleshov yangi kavkaz merinos qo‘y zotini yaratdilar.

Akademik M.F.Ivanov askaniya merinosi, ukraina dashti oq cho‘chqa zotini, tog‘ merinosini yaratdi. Bu fanning rivojlanishida mashxur genetik olimlarning G.Mendel, T.G.Morgan, V.I.Ioganson, Nilson-Ele, N.I.Vavilovning kashfiyotlari katta rol’ uynadi. Ular irsiyatning asosiy konuniyatlarini, xromosoma nazariyasini, sof liniyalar va populyasiyalarda tanlashning samarasini, polimeriya xodisasini, irsiy o‘zgaruvchanlikda gomologik qatorlar qoidasini ochib beradilar va bu kashfiyotlar seleksiyaning fan sifatida shakllanishida uz ta’sirini kursatadi.

Bu fan boshqa fanlar bilan xususan evolyusion ta’limot, genetika, biotexnologiya, populyasion genetika, chorva mollarini urchitish, ximiya, fizika fanlari bilan bog‘liqdir. Bu fanlarning yutuklaridan foydalanib seleksiyada yangi usullar yaratilgan. Bu usullarga sintetik liniyalar yaratish, sitoplazmatik erkaklik sterilligi usuli, eksperimental poliploidiya va mutagenez, biotexnologiya, transplantasiya, klonlashtirish, gen injeneriyasi, ximiyaviy va radiasion seleksiya usullarini kiritish mumkin.

Bu usullar yordamida juda kup yangi usimlik navlari, mikroorganizim shtammlari, yangi hayvon liniyalari va gibridlari yaratilgan.

Seleksiyaning asosiy vazifasi xo‘jalik uchun foydali, yukori maxsuldor tez yetiluvchan yangi zotlar, tiplar tizimlar va oilalar yaratishdir. Seleksiya asosan uchta element buyicha olib boriladi. Bu maxsuldorlik, maxsulotlar sifati, yangi texnologiya va ekologik sharoitlarga moslashish elementlaridir.

## **2.2. Evolyusiyaning asosiy omillari, biotexnologiyalarning qo‘llanilishi**

Seleksiya tasodifiy, ongli va ilmiy asosda olib borilishi mumkin. Seleksiya fani evolyusion ta’limot bilan chambarchast bog‘liqdir. Evolyusiya organik olamning rivojlanishi tugrisidagi ta’limotdir. Evolyusiyaning asosiy omillari seleksiya uchun xam asosiy omillar bulib xisoblanadi.

Bu omillarga irsiyat, o‘zgaruvchanlik, tanlash, turlarning paydo bulishi, makroevolyusiya, mikroevolyusiya, domestikasiya jarayonlari kiradi. Kishilar shu omillar yordamida kadim zamonlardan boshlab yangi navlar, zotlar, tiplar, podalarni yaratib kelganlar.

Chorvachilikda seleksiya olib borishda zamonaviy biotexnologik usullardan foydalanilmokda. Biotexnologiya genetik injeneriya, transplantasiya va transgen hayvonlarni olishga bulinadi.

Genetik injeneriya yordamida yangi mikroorganizimlar yaratilib, biologik aktiv moddalar, aminokislatalar, gormonlar, fermentlar ishlab chikarilmokda. Masalan: usish garmoni yaratilib, qoramollarning kundalik kushimcha usishi 10-15 % ga sut maxsuldorligi 40 % ga oshgan.

Bu usullar yordamida qoramollar va cho’chkalarning virus kasalliklariga karshi vaksinalar ishlab chikarilmokda. Avstraliyada transgen kuy, Angliyada genokopiya kuylar va buzok olingan. Kelgusida genlarni kuchirib utkazish yordamida yukori maxsuldor hayvonlar olish mumkin.

Chorvachilikda embrionlarni transplantasiya kilish keng qo‘llanilmokda. Bu usul yordamida yukori maxsuldor, mutant hayvonlarning belgilarini kupaytirish, kasalliklarga chidamli podalar yaratish mumkin.

Donor - rekordist hayvonlarning embrion va zarodishlarini urtacha va past maxsuldor - resepiyent hayvonlarga kuchirib utkazish yordamida kiska muddatda kup mikdorda uxshash yukori maxsuldor podalar yaratish mumkin.

Seleksiya hayvonlardagi xar xil belgilar buyicha olib boriladi. Bu belgilarni sifat va mikdor belgilarga bulinadi. Sifat belgilarga hayvonlarning tusi, rangi, shakli, maxsuldorlik sifati kiradi. Bu belgilarning naslga berilishi Mendel konuniyatlariga asoslangan. Bu belgilar dominantlik, chala dominantlik, urtacha naslga berilishiga asoslangan.

